

**DAVR XARAJATLARINING HUJJATLASHTIRILISHI VA SINTETIK
HISOBI****Charshenova Feruza Zaripboy qizi****Razzoqova Gulrux Abdulfayizovna**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 3-kurs 1/23-guruh moliya va moliyaviy
texnologiyalar yo'nalishi talabalari**Ilmiy rahbar: Do'smuxamedova Nozima**

Bozor iqtisodiyotining ustunligini ta'minlovchi muhim xususiyati unda barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro raqobat asosida faoliyat yuritishi hisoblanadi. Raqobatchilik sharoitida faoliyat yuritish barcha korxonalaridan xarajatlarini tejagan holda xo'jalik faoliyatini tashkil etishni talab qiladi. Aks holda ular raqobatda yutqazadilar.

Korxonalar xarajatlarining tarkibida o'zining ahamiyati va salmog'i bo'yicha davr xarajatlari ham muhim o'rin egallaydi. Bozor iqtisodiyoti davr xarajatlarini ham optimal miqdorda saqlashni, keraksiz sarflarga yo'l qo'ymaslikni talab qiladi. Buni nazorat qiluvchi muhim vosita bolib, buxgalteriya hisobi sanaladi.

Korxonalarining doimiy faoliyat yuritishlari uchun ishlab chiqarishdan tashqari mahsulotlarni (Tovarlarni, ish va xizmatlarni) sotishga, korxonani ma'muriy boshqaruviga va boshqa operatsion faoliyatiga oid xarajatlarni ham amalga oshirishlari talab etiladi. Bunday xarajatlar davr xarajatlari, deb ataladi. Korxonalar xarajatlarining tarkibida o'zining miqdori bo'yicha davr xarajatlari ham muhim o'rin egallaydi.

Davr xarajatlarining turlari, tarkibiy elementlari "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalari to'g'risidagi Nizomda " batafsil ochib berilgan. Unga muvofiq davr xarajatlari quyidagi 4 xil xarajatni o'z ichiga oladi:

1. Sotish xarajatlari;
2. Ma'muriy xarajatlar;
3. Boshqa operatsion xarajatlar;
4. Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlari;

Birinchi guruhga korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni, sotish uchun xarid qilingan tovarlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar kiradi. Bularga sotish (marketing) bo'limi xodimlari ish haqisi, ular ish haqidan ijtimoiy sug'urta fondlariga ajratmalar, tovarlarni saqlash, tashish, navlarga ajratish, qadoqlash

xarajatlari, reklama uchun qilingan xarajatlar, tovarlarni sotishga xizmat qiluvchi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi kabi xarajatlar kiradi.

Ma'muriy xarajatlarga korxonada rahbariyatini tutib turish uchun qilingan qilingan barcha xarajatlar kiradi. Bunday xarajatlar tarkibiga boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari, ish haqidan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, xizmat avtotransportiga va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari, boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari, ma'muriy – boshqaruv ahamiyatidagi asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni saqlash, ularga xisoblangan amortizatsiya va boshqa xarajatlar kiradi.

Boshqa operatsion xarajatlarga mahsulot tannarxiga, sotish va ma'muriy xarajatlarga taaluqli bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bularga kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, maslahat, axborot va auditorlik xizmatlariga to'langan haqlar, o'zining xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklarni saqlashdan ko'rilgan zararlar, salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvchi bilan bog'liq bo'lmagan dam olishlarini tashkil etish tadbirlari, kompensatsiya va rag'batlantirish tusidagi to'lovlar, ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to'lovlar va xarajatlar, bank va depozitariy xizmatlarga to'lovlar, turli jarimalar va boshqa xarajatlar kiradi.

Kelgusida soliq bazasidan chegiriladigan hisobot davr xarajatlariga sarmoya bilan ta'minlash bilan bog'liq bo'lmagan va sarmoya bilan ta'minlanadigan asosiy vositalar qiymatiga qo'shilmaydigan xarajatlar kiradi. Jumladan:

- Xo'jalik yurutuvchi yangi subektlar, ishlab chiqarishlar, sexlar, agregatlarni o'zlashtirishga xarajatlar;
- Boshqaruv tizimlari va vositalarini yaratish hamda takomillashtirish bo'yicha xarajatlar;
- Seriyali va keng ko'lamda chiqariladigan mahsulotlar yangi turlarini ishlab chiqarishni hamda texnologik jarayonlarni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari;
- Qonunchilikka muvofiq ishchi kuchlari qabul qilish bilan bog'liq xarajatlar;
- Xo'jalik yurituvchi subektlarni, ishlab chiqarish liniyalarini rivojlantirish (takomillashtirish) xarajatlari.

- Buxgalteriya hisobining boshqa hisob turlaridan farqli xususiyati shundaki, unda aks ettirilgan xo'jalik operatsiyalari qat'iy xujjatlashtirilgan bo'ladi, yani hisobda aks ettirilgan ma'lumotlarini muhimligini, ishonarliligini, yuridik kuchga ega ekanligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham xujjatlashtirish buxgalteriya hisobining muhim usuli hisoblanadi.

Davr xarajatlarini hujjatlashtirish deganda yuz bergan davr xarajatlariga oid operatsiyalarini ma'lum bir xujjatlar bilan rasmiylashtirish usuli tushiniladi.

Davr xarajatlarini aks ettiradigan xujjatlar deganda davr xarajatlarining sarflanganligini guvohlik beruvchi yoki ularni kelgusida sarflanishiga asos bo'luvchi yozma guvohnoma tushiniladi. Masalan, ma'muriyat xodimlari uchun hisoblangan ish haqiga ularning ishga chiqish tabeli va ish haqi hisob kitobi guvohlik beradi. Boshqa bir hujjatlar davr xarajatlarining kelgusida sarflanishiga asos bo'ladi, masalan, xodimlarni moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi raxbarning buyrug'i xodimlarga mukofot hisoblash uchun asos bo'ladi.

Davr xarajatlarining hisobi alohida moddalari bo'yicha quyidagi hujjatlarga asoslanib yuritiladi.

Davr xarajatlari xisobini yuritishga asos bo'luvchi birlamchi hujjatlar

Xarajat turlari	Hisob yuritishga asos bo'luvchi birlamchi hujjatlar
Ish haqi ko'rinishidagi xarajatlar	1. Tabellar 2. Ish haqi hisob -kitoblari
Ijtimoiy sug'urta xarajatlari	Hisob -kitoblar
Xodimlarga mukofotlar va boshqa rag'batlantirish ko'rinishidagi xarajatlar	1. Raxbarning buyrug'i 2. Mukofotlar hisob-kitoblari
Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar	Bo'nak hisobotlari
Ko'rilgan moddiy zararlar	1. Moddiy zararni tekshirish kommiyasining dalolatnomalari 2. Raxbarning zararni korxonadan qoplash haqidagi qarori
Boshqa korxonalar tomonidan ko'rsatilgan savdo boshqa xizmatlar (brokerlik, auditorlik, konsalting) haqlari	1. Shartnomalar 2. Bajarilgan ishlarni topshirish qabul qilish dalolatnomalari schyot fakturali
Savdo va ma'muriy maqsadlarda qilingan moddiy xarajatlar (xo'jalik inventarlari sarfi, materiallar sarfi)	1. Talabnomalar; 2. Chiqim dalolatnomalari 3. Naryadlar;

	4.Zabor varaqlari
Davr xarajatlariga olib boriladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisob-kitoblari
Savdo va ma'muriy maqsadlar uchun ishlatilgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	Eskirish hisoblash hisob-kitoblari
Boshqa xarajatlar	1.Dalolatnomalar; 2.Moddiy javobgar shaxslar hisobotlari 3.Raxbar buyruqlari va boshqalar

21-son BHMS ga muvofiq davr xarajatlarining hisobi quyidagi schyotlarda olib boriladi (2-jadval)

21-son BHMSga muvofiq davr xarajatlari hisobi uchun mo'ljallangan schyotlar

Schyot №	Schyotlarning nomi	
9400	Davr xarajatlarini hisobga olivchi schyotlar	
9410	Sotish xarajatlari	
9420	Ma'muriy xarajatlar	
9430	Boshqa operatsion xarajatlar	
9440	Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davr xarajatlari	

Ushbu schotlarning barchasi transit schyotlar bo'lib ,ular yil boshi va oxiriga qoldiqqa ega bo'lmaydi.Biroq ,hisobot davrining o'rtalarida ,masalan ,muayyan oylarda bosh va oxirgi qoldiqlar hisoblanishi mumkin.Ushbu schyotlar mohiyatan aktiv schyotlarga o'xshaydi.Shu sababli ,ularning ko'payishi debet tomonda ,kamayishi esa ,kredit tomonda aks ettiriladi.Bu schyotning muayyan davr mobaynidagi debet oboroti shu davr mobaynida korxonadan tomonidan qilingan davr xarajatlarini aks ettiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ,amaliyotda juda ko'p hollarda kelgusi davrlarga oid xarajatlar davr xarajatlariga olib boriladi.Shuningdek ,sotish ,ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar ham bir -biri bilan chalkashtirilgan xolda hisobga olinadi.Bunday xatolar hisobot davri foyda ko'rsatkichlarining ham noto'g'ri xulosalarning shakllanishiga olib keladi.Shu sababli ,davr xarajatlari hisobini yuqorida nomi e'tirof etilgan Nizom va buxgalteriya hisobi tamoyillariga qat'iy amal qilgan holda yuritish maqsadga muvofiqdir.

Sayyoramizda har yili millionlab insonlar o'zga mamlakatlarga sayohatga o'tlanishadi. Turistlar xorijiy mamlakat ,u yerda yashayotgan xalqlarning urf-odatlari , an'analari ,madaniyati va ma'rifati ,tarixi va tabiatidan vofiq bo'ladi ,go'zal maskanlarida bo'lib zavqlanadi.Globallashuv jarayonida turizm yanada rivoj topib,natijada ushbu sanoat jahon tovarlar va xizmatlar eksportida birinchi o'ringa chiqib oldi.Statistik ma'lumotlarga ko'ra ,turistlar oqimi hozirda yiliga bir milliard nafardan ziyod kishini tashkil etmoqda .Insonyatning madaniy beshiklaridan hisoblangan O'zbekiston diyori ham ushbu oqimning ajralmas bo'lagi sanaladi.Zero,O'zbekiston ham o'zining jozibadorligi ,noyob arxitekturaobidalari,madaniy merosi va dam olish,sayohatlar ucjun mo'ljallangan maskanlari bilan jahondagi ilg'or mamlakatlardan qolishmaydigan yirik turistik davlatga aylanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.** — Toshkent, 2016 (o'zgartish va qo'shimchalar bilan).
2. **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buyrug'i.** "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma". — Toshkent, 2020.
3. **O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.** Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS). — Toshkent, amaldagi nashr.
4. Qodirov A.Q. **Buxgalteriya hisobi (Moliyaviy hisob).** — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. Abdullayev Yo., Rahimov A. **Korxonalarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot.** — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Karimov Sh.A. **Boshqaruv hisobi.** — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
7. Xudoyberganov B., Saidova D. **Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish.** — Toshkent: Fan, 2020.
8. Horngren C., Datar S. **Cost Accounting: A Managerial Emphasis.** — Pearson Education, 2018.
9. Drury C. **Management and Cost Accounting.** — Cengage Learning, 2019.
10. Ibragimov M. **Buxgalteriya hujjatlari va hujjatlashtirish asoslari.** — Toshkent: O'qituvchi, 2018.
11. Palij M.S. **Теория бухгалтерского учета.** — Москва: ИНФРА-М, 2019.

12. Sheremet A.D. **Финансовый учет.** — Москва: Юрайт, 2021.
13. Kuter M.I. **Бухгалтерский управленческий учет.** — Москва: Проспект, 2020.
14. International Accounting Standards Board. **IAS/IFRS Handbook.** — London, 2022.
15. Saidov A.A. **Korxonalar xarajatlari va ularni boshqarish hisoboti.** — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.